ACUMEN: INTERNATIONAL JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY RESEARCH
ISSN: 3060-4745 IF(Impact Factor)10.71 / 2025 Volume 3, Issue 11

IQTISODIYOTNI ERKINLASHTIRISH SHAROITIDA CHET EL INVESTITSIYALARINI JALB QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Kargar Zabiullah
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Magistratura bo‘limi
70410102 – iqtisodiyot mutaxasisligi magistranti
Ilmiy rahbar:i.f.f.d. (PhD) Ishmuratov Baxodir Xusanovich

Annotatsiya. Mazkur maqolada iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida mamlakat iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarini jalb qilishning iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy asoslari tahlil qilingan. Xususan, O‘zbekistonda investitsiya muhitini yaxshilash, xorijiy investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, tadbirkorlik faoliyatiga to‘sqinlik qiluvchi ma’muriy cheklovlarni qisqartirish hamda investitsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga e’tibor qaratilgan. Shuningdek, 2025-yil yakunlari bo‘yicha investitsiya ko‘rsatkichlari, investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari va xorijiy kapitalni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga yo‘naltirish imkoniyatlari o‘rganilgan. Tadqiqot yakunida chet el investitsiyalarini jalb qilish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiyotni erkinlashtirish, chet el investitsiyalari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, investitsiya muhiti, investitsion jozibadorlik, iqtisodiy islohotlar, xususiy sektor, investitsiya siyosati, davlat-xususiy sheriklik, eksport salohiyati.

Аннотация. В статье анализируются экономические, организационные и правовые основы привлечения иностранных инвестиций в условиях либерализации экономики. Особое внимание уделяется улучшению инвестиционного климата в Узбекистане, защите прав и интересов иностранных инвесторов, сокращению административных барьеров для предпринимательской деятельности и совершенствованию механизмов финансирования инвестиционных проектов. Также рассматриваются инвестиционные показатели по итогам 2025 года, законодательные документы, регулирующие инвестиционную деятельность, и возможности направления иностранного капитала в приоритетные отрасли экономики. По результатам исследования разработаны научно-практические предложения по повышению эффективности привлечения иностранных инвестиций.

Ключевые слова: либерализация экономики, иностранные инвестиции, прямые иностранные инвестиции, инвестиционный климат, инвестиционная привлекательность, экономические реформы, частный сектор, инвестиционная политика, государственно-частное партнёрство, экспортный потенциал.

Abstract. This article examines the economic, institutional, and legal foundations for attracting foreign investment under conditions of economic liberalization. Particular attention is paid to improving Uzbekistan's investment climate, protecting the rights and interests of foreign investors, reducing administrative barriers to business activities, and improving investment project financing mechanisms. The study also examines investment performance indicators for 2025, legislative acts regulating investment activities, and opportunities for directing foreign capital towards priority sectors of the economy. Based on the findings, the article develops practical and scientific recommendations for improving the effectiveness of foreign investment attraction.

Keywords: economic liberalization, foreign investment, foreign direct investment, investment climate, investment attractiveness, economic reforms, private sector, investment policy, public-private partnership, export potential.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro kapital harakatining kengayishi va davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy raqobatning kuchayishi sharoitida chet el investitsiyalarini jalb qilish milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlovchi muhim omillardan biriga aylanmoqda. Xorijiy investitsiyalar mamlakatga nafaqat qo‘shimcha moliyaviy resurslarni olib kiradi, balki zamonaviy texnologiyalar, ilg‘or boshqaruv tajribasi, yangi ishlab chiqarish usullari va xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini ham yaratadi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonida investitsiya siyosatining asosiy vazifasi davlatning iqtisodiy faoliyatga bevosita aralashuvini maqbullashtirish, xususiy mulk daxlsizligini ta’minlash, sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish va investorlar uchun teng sharoitlar yaratishdan iborat. Chunki xorijiy investor kapital kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilayotganda mamlakatning tabiiy resurslari yoki geografik joylashuvinigina emas, balki qonunchilik barqarorligi, siyosiy va iqtisodiy xavfsizlik, valyuta operatsiyalarining erkinligi, infratuzilma rivojlanganligi hamda investitsiya daromadlarini qaytarish imkoniyatlarini ham hisobga oladi.

O‘zbekiston mustaqillik yillarida iqtisodiyotga xorijiy kapitalni jalb qilish bo‘yicha muayyan tajriba to‘plagan bo‘lsa-da, ayniqsa, 2017-yildan boshlab investitsiya muhitini tubdan yaxshilashga qaratilgan islohotlar yangi bosqichga

ko‘tarildi. Valyuta bozorining liberallashtirilishi, soliq tizimining isloh qilinishi, tadbirkorlik subyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonlarining soddalashtirilishi, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining rivojlantirilishi va erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining kengaytirilishi xorijiy investorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratdi.

O‘zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham iqtisodiyotni erkinlashtirish, xususiy sektor ulushini oshirish, investitsiya muhitini yaxshilash va eksport salohiyatini kengaytirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Shuningdek, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, investitsiyalarni ko‘paytirish va xalqaro iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirishga alohida e’tibor qaratilgan [1; 2].

Mazkur sharoitda chet el investitsiyalarini jalb qilishning mavjud mexanizmlarini takomillashtirish, xorijiy kapitalni faqat xomashyo va resurslarga asoslangan tarmoqlarga emas, balki yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan ishlab chiqarish, sanoat, energetika, transport, logistika, axborot texnologiyalari va qishloq xo‘jaligini qayta ishlash sohalariga yo‘naltirish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida chet el investitsiyalarini jalb qilishning mavjud mexanizmlarini tahlil qilish, O‘zbekistondagi investitsiya muhitining rivojlanish tendensiyalarini baholash hamda investitsion jozibadorlikni oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini iqtisodiyotni erkinlashtirish, investitsiya siyosati, xalqaro kapital harakati va xorijiy investitsiyalarni boshqarishga oid ilmiy-nazariy qarashlar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil, ilmiy umumlashtirish, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

Tahlil uchun O‘zbekiston Respublikasining investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi qonunlari, Prezident farmonlari va qarorlari, Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi axborotlari hamda xalqaro tashkilotlarning investitsiya siyosatiga oid tadqiqotlari asos qilib olindi.

Tadqiqotda chet el investitsiyalarini jalb qilish samaradorligi quyidagi asosiy mezonlar bo‘yicha ko‘rib chiqildi:

- mamlakatga kirib kelayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi;
- to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning umumiy investitsiyalardagi ulushi;
- xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni;
- investitsiyalarning tarmoqlar va hududlar bo‘yicha taqsimlanishi;

- investitsiya loyihalarining eksport va bandlikka ta’siri;
- investorlarning huquqiy himoyasi va biznes yuritish sharoitlari.

Mazkur ko‘rsatkichlar investitsiya siyosatining nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatlarini ham baholash imkonini beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Chet el investitsiyalarining iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati

Chet el investitsiyalari — xorijiy davlatlar, kompaniyalar, moliya institutlari va jismoniy shaxslar tomonidan boshqa mamlakat iqtisodiyotiga daromad olish yoki uzoq muddatli iqtisodiy manfaatlarni ko‘zlab kiritiladigan kapital, moliyaviy mablag‘lar, moddiy va nomoddiy aktivlardir.

Xorijiy investitsiyalar iqtisodiy mazmuniga ko‘ra bir nechta asosiy shakllarga ajratiladi. Jumladan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, portfel investitsiyalari, xalqaro kreditlar va boshqa investitsion moliyalashtirish manbalari shular jumlasidandir.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar alohida ahamiyatga ega, chunki ular investorning korxona faoliyatida uzoq muddatli iqtisodiy manfaatdorligini va boshqaruvda ishtirok etish imkoniyatini nazarda tutadi. Bunday investitsiyalar ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish, mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning mamlakat iqtisodiyoti uchun asosiy afzalliklarini quyidagicha izohlash mumkin:

Birinchidan, investitsiyalar iqtisodiyotda kapital yetishmovchiligini kamaytiradi va yirik loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatini kengaytiradi.

Ikkinchidan, xorijiy kompaniyalar orqali zamonaviy texnologiyalar, innovatsion ishlanmalar va ilg‘or ishlab chiqarish tajribasi kirib keladi.

Uchinchidan, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi ish o‘rinlarini yaratadi, mehnat unumdorligini oshiradi va mahalliy mutaxassislarning malakasini rivojlantiradi.

To‘rtinchidan, xalqaro kompaniyalar bilan hamkorlik mahalliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro qiymat zanjirlariga qo‘shilishiga yordam beradi.

Beshinchidan, eksportga yo‘naltirilgan investitsion loyihalar mamlakatning tashqi savdo salohiyatini oshiradi va valyuta tushumlarining ko‘payishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ularning sifat ko‘rsatkichlariga ham e’tibor qaratish zarur. Chunki investitsiyalarning katta hajmda

kirib kelishi har doim ham iqtisodiyotning texnologik rivojlanishi yoki aholi farovonligining oshishini anglatmaydi. Shu sababli investitsiya loyihalarini baholashda yaratiladigan ish o‘rinlari, mahalliylashtirish darajasi, eksport salohiyati, ekologik ta’sir va texnologik yangilanish kabi mezonlardan foydalanish lozim.

O‘zbekistonda chet el investitsiyalarini jalb qilishning amaldagi holati

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar oqimining sezilarli darajada oshgani kuzatilmoqda. Bunga iqtisodiy islohotlar, investitsiya qonunchiligining takomillashtirilishi, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning kengayishi va yangi sanoat loyihalarining amalga oshirilishi ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda mamlakatda jami 43,1 milliard AQSh dollari miqdorida investitsiya o‘zlashtirilgan. Bu 2024-yilga nisbatan 24 foiz ko‘pdir. Ushbu mablag‘larning 38,2 milliard AQSh dollari to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, 4,9 milliard AQSh dollari esa xalqaro moliya institutlari mablag‘lari hissasiga to‘g‘ri kelgan [3].

O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali

Ushbu ko‘rsatkich mamlakat iqtisodiyotiga xalqaro kapital kirib kelishi faollashganini namoyon etadi. Ayniqsa, Xitoy, Rossiya, Turkiya, Saudiya Arabistoni va Birlashgan Arab Amirliklari bilan investitsiyaviy hamkorlikning kengayishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Investitsiyalar tarkibida sanoat, energetika, infratuzilma, qurilish, logistika va xizmatlar sohasi muhim o‘rin egallaydi. Xususan, energetika tarmog‘ida quyosh va shamol elektr stansiyalarini tashkil etish, sanoatda ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish hamda transport-logistika tizimini rivojlantirish xorijiy investorlar uchun istiqbolli yo‘nalishlar hisoblanadi.

Milliy statistika qo‘mitasining 2025-yil 1-oktabr holatidagi ma’lumotlariga ko‘ra, xorijiy investitsiyalar va kreditlarning asosiy kapitalga yo‘naltirilgan hajmi 34,5 milliard AQSh dollarini tashkil etgan. Shundan 24,9 milliard AQSh dollari yangi asosiy vositalarni yaratishga yo‘naltirilgan [4].

Mazkur ko‘rsatkichlar xorijiy kapitalning mamlakat ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirishdagi o‘rnini ko‘rsatadi.

Yana bir muhim ko‘rsatkich xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining ortib borishidir. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2026-yil 1-fevral holatida O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi 18 513 ta korxona faoliyat yuritgan. Ularning 4 282 tasi qo‘shma korxona, 14 231 tasi esa xorijiy korxonalardan

iborat bo‘lgan. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni so‘nggi besh yilda 1,9 barobar oshgan [5].

Ushbu korxonalar sonining ko‘payishi xorijiy investorlarning O‘zbekiston bozoriga bo‘lgan qiziqishi ortib borayotganini anglatadi. Biroq investitsiyalarning hududlar va tarmoqlar bo‘yicha mutanosib taqsimlanishi ham dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Shu sababli investitsion loyihalarni faqat poytaxt yoki yirik sanoat markazlarida emas, balki iqtisodiy salohiyati yetarlicha foydalanilmagan hududlarda ham rivojlantirish muhimdir.

Chet el investitsiyalarini tartibga soluvchi qonunchilik asoslari

O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va investorlar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha mustahkam huquqiy asoslarni shakllantirish iqtisodiy islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Investitsiya qonunchiligi xorijiy investorlar uchun huquqiy kafolatlar, faoliyat yuritish shartlari, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralari va investitsion nizolarni hal qilish tartiblarini belgilaydi.

Mazkur yo‘nalishda quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar alohida ahamiyatga ega.

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

2023-yil 30-aprelda referendum orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida iqtisodiy faoliyat erkinligi, xususiy mulk daxlsizligi va mulkdorlarning huquqlarini himoya qilishga oid konstitutsiyaviy kafolatlar mustahkamlangan.

Xususan, 65-moddada iqtisodiyotning negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etishi, davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratishi belgilangan. Shuningdek, barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi kafolatlangan [6].

Ushbu normalar xorijiy investorlar uchun mulkiy huquqlarning himoyalanganligi va iqtisodiy faoliyat yuritish erkinligining konstitutsiyaviy asoslarini yaratadi.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-598-sonli “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni.

Mazkur qonun mamlakatda investitsiya munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjatlardan biridir. Unda investitsiya faoliyatining asosiy tamoyillari, investorlarning huquq va majburiyatlari, investitsiyalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hamda investitsiya faoliyati ishtirokchilarining huquqlarini himoya qilish masalalari belgilangan [7].

Qonunning muhim jihatlaridan biri investitsiya faoliyatida qonuniylik, oshkoralik, ochiqlik, erkinlik, adolat va tenglik tamoyillarining mustahkamlanganidir.

Bu tamoyillar xorijiy investorlarning mahalliy investorlar bilan teng sharoitlarda faoliyat yuritishi uchun huquqiy zamin yaratadi.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi O‘RQ-537-sonli “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni.

Mazkur qonun davlat va xususiy sektor o‘rtasida uzoq muddatli hamkorlikni tashkil etishning huquqiy asoslarini belgilaydi. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmi orqali xususiy va xorijiy investorlar infratuzilma, energetika, sog‘liqni saqlash, ta’lim, transport va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi loyihalarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladi [8].

Ushbu mexanizm davlat budjetiga tushadigan moliyaviy yukni kamaytirish, xususiy kapitalni jalb qilish va xizmatlar sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

4. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-fevraldagi O‘RQ-604-sonli “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonuni.

Mazkur qonun maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish, ularning faoliyatini tartibga solish, ishtirokchilar uchun sharoit yaratish va investitsiya loyihalarini amalga oshirishning huquqiy asoslarini belgilaydi [9].

Maxsus iqtisodiy zonalar xorijiy investorlarni sanoat ishlab chiqarishi, eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlar tayyorlash, logistika va texnologik faoliyatga jalb qilish uchun muhim vosita hisoblanadi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.

Ushbu farmon bilan tasdiqlangan 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida iqtisodiyotni erkinlashtirish, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, investitsiya muhitini yaxshilash va iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish muhim vazifalar sifatida belgilangan [10].

Mazkur hujjat keyingi iqtisodiy islohotlar va investitsiya siyosatining shakllanishida muhim dasturiy asos bo‘lib xizmat qildi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-iyundagi PF-97-sonli “O‘zbekiston Respublikasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag‘batlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.

Ushbu hujjat xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonini yanada faollashtirishga qaratilgan muhim normativ-huquqiy hujjatlardan biridir. Farmon investitsiya loyihalarini rag‘batlantirish, xorijiy investorlar bilan ishlash mexanizmlarini takomillashtirish va investitsion jozibadorlikni oshirishga doir chora-tadbirlarni nazarda tutadi [11].

Mazkur hujjatning amaliy ahamiyati shundaki, xorijiy kapitalni jalb qilish masalasiga faqat investitsiya hajmini oshirish nuqtayi nazaridan emas, balki investorlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish nuqtayi nazaridan ham yondashish zarurligini ko‘rsatadi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

Strategiyada iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, xususiy sektorning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish, investitsiyalarni faol jalb qilish va mamlakatning xalqaro iqtisodiy aloqalarini kengaytirish bo‘yicha uzoq muddatli maqsadlar belgilangan [2].

Ushbu hujjatlar o‘zaro uyg‘unlikda O‘zbekistonda investitsiya muhitini shakllantirish va xorijiy kapital uchun huquqiy kafolatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va investitsion jozibadorlikni oshirish mexanizmlari

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish faqat imtiyozlar taqdim etish bilan cheklanmasligi kerak. Eng avvalo, investorlar uchun iqtisodiy va huquqiy jihatdan barqaror muhit shakllantirilishi lozim.

OECDning 2025-yil 26-noyabrda e’lon qilingan O‘zbekiston bo‘yicha investitsiya siyosatini isloh qilish yo‘l xaritasida mamlakatda 2017-yildan buyon investitsiya muhitini yaxshilash bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilgani qayd etilgan. Shu bilan birga, qonunchilikdagi murakkabliklar, idoralararo muvofiqlashtirishning yetarli emasligi, davlat korxonalari va xususiy sektor o‘rtasidagi raqobat sharoitlarini tenglashtirish masalalari hali ham takomillashtirishni talab etishi ta’kidlangan [12].

Ushbu tahlildan kelib chiqib, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini quyidagi yo‘nalishlarda takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Birinchi yo‘nalish — investitsiya qonunchiligi barqarorligini ta’minlash.

Xorijiy investorlar uchun eng muhim shartlardan biri qonunchilikning oldindan prognoz qilinishi va uning amaliyotda bir xil qo‘llanilishidir. Tez-tez o‘zgaradigan me’yoriy talablar, ruxsatnomalar olishdagi murakkabliklar va turli idoralarning takroriy talablarini qisqartirish zarur.

Buning uchun investitsiya loyihalariga tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni yagona tizimga keltirish, investorlarning murojaatlarini tezkor ko‘rib chiqish va davlat organlarining javobgarligini kuchaytirish muhim.

Ikkinchi yo‘nalish — soliq va bojxona ma’murchiligini takomillashtirish.

Soliq tizimining shaffofligi va barqarorligi investorlarning uzoq muddatli moliyaviy rejalarini ishlab chiqishiga yordam beradi. Shu sababli xorijiy investorlar uchun belgilangan imtiyozlarni aniq mezonlar asosida taqdim etish, bojxona rasmiylashtiruvi jarayonlarini raqamlashtirish va soliq hisobotlarini soddalashtirish zarur.

Bunda imtiyozlarni barcha investorlarga bir xil va asossiz ravishda berish emas, balki yangi texnologiyalarni olib kiradigan, eksportni oshiradigan, mahalliy ish o‘rinlarini yaratadigan va yuqori qo‘shilgan qiymat ishlab chiqaradigan loyihalarni rag‘batlantirish maqsadga muvofiq.

Uchinchi yo‘nalish — xususiy sektor va davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmi muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa, energetika, transport, kommunal xizmatlar, sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalarida xususiy kapitaldan foydalanish imkoniyatlari keng.

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarida tenderlarning ochiqligini ta’minlash, loyihalarning iqtisodiy samaradorligini oldindan baholash va xususiy investorlar uchun aniq shartnomaviy kafolatlarni belgilash zarur.

To‘rtinchi yo‘nalish — investitsiyalarni hududiy diversifikatsiya qilish.

Investitsiyalarning asosiy qismi iqtisodiy infratuzilmasi rivojlangan hududlarda jamlanishi boshqa mintaqalarning investitsion imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanilmasligiga olib kelishi mumkin.

Shuning uchun har bir hududning tabiiy resurslari, mehnat salohiyati, transport imkoniyatlari va ishlab chiqarish ixtisoslashuvini hisobga olgan holda alohida investitsiya dasturlarini ishlab chiqish lozim.

Masalan, Surxondaryo viloyatida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, logistika, turizm va qurilish materiallari ishlab chiqarish; Navoiy viloyatida tog‘-kon sanoati va kimyo; Qoraqalpog‘iston Respublikasida qayta tiklanuvchi energetika hamda ekologik texnologiyalar yo‘nalishlarida investitsion loyihalarni rivojlantirish mumkin.

Beshinchi yo‘nalish — to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni eksportga yo‘naltirish.

Xorijiy investitsiyalar hisobidan tashkil etilgan korxonalar faqat ichki bozor ehtiyojlarini qondirish bilan cheklanib qolmasligi lozim. Ularni xalqaro ishlab chiqarish zanjirlariga integratsiya qilish, eksport geografiyasini kengaytirish va xalqaro standartlarni joriy etish zarur.

Buning uchun eksportga yo‘naltirilgan investitsiya loyihalarini moliyaviy va institutsional jihatdan qo‘llab-quvvatlash, xalqaro sertifikatlash tizimlarini

rivojlantirish hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni xorijiy kompaniyalar bilan kooperatsiyaga jalb qilish maqsadga muvofiq.

Chet el investitsiyalarini jalb qilish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha takliflar.

Olib borilgan tahlillar asosida O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish tizimini yanada rivojlantirish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi.

Takomillashtirish yo‘nalishi	Amalga oshirish mexanizmi	Kutilayotgan natija
Huquqiy kafolatlar	Investorlar huquqlarini himoya qilish va qonunchilik barqarorligini ta’minlash	Investorlar ishonchining oshishi
Soliq siyosati	Eksport va innovatsiyaga yo‘naltirilgan loyihalarni rag‘batlantirish	Yangi ishlab chiqarish loyihalari ko‘payishi
Raqamlashtirish	Investitsiya loyihalarini yagona elektron platformada boshqarish	Ma’muriy xarajatlar qisqarishi
Hududiy investitsiyalar	Viloyatlarning investitsion pasportlarini ishlab chiqish	Hududlararo investitsiya tafovutining kamayishi
Davlat-xususiy sheriklik	Infratuzilma loyihalariga xususiy va xorijiy kapitalni jalb qilish	Yangi infratuzilma obyektlari yaratilishi
Eksport salohiyati	Xalqaro qiymat zanjirlariga integratsiyalashuv	Eksport hajmining oshishi
Kadrlar tayyorlash	Xalqaro standartlar asosida investitsiya menejerlarini tayyorlash	Loyihalarni boshqarish samaradorligi oshishi

Taklif etilayotgan mexanizmlarning muhim jihati shundaki, ular xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni faqat moliyaviy imtiyozlar bilan emas, balki iqtisodiy, huquqiy va institutsional sharoitlarni yaxshilash orqali ta’minlashga qaratilgan.

Bundan tashqari, investitsion loyihalarning samaradorligini baholashda faqat o‘zlashtirilgan mablag‘lar hajmiga tayanmaslik lozim. Har bir loyiha bo‘yicha yangi ish o‘rinlari, mahalliy mahsulotlar ulushi, eksport tushumlari, texnologik yangilanish va ekologik samaradorlik ko‘rsatkichlarini ham hisobga olish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida chet el investitsiyalarini jalb qilish mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlovchi asosiy omillardan biridir. Xorijiy investitsiyalar ishlab

chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, mehnat unumdorligini oshirish, eksport salohiyatini rivojlantirish va yangi ish o‘rinlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda investitsiya muhitini yaxshilash borasida amalga oshirilgan iqtisodiy va institutsional islohotlar natijasida xorijiy kapital oqimi sezilarli darajada oshdi. Xususan, 2025-yilda jami investitsiyalar hajmining 43,1 milliard AQSh dollariga yetgani mamlakatning xalqaro investitsiya bozoridagi faolligi ortib borayotganini ko‘rsatadi. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining ko‘payishi ham investitsion muhitdagi ijobiy o‘zgarishlardan dalolat beradi.

Shu bilan birga, investitsiyalarni jalb qilishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, hududlar o‘rtasida investitsiyalar taqsimotining notekisligi, ayrim infratuzilma cheklovlari, qonunchilikni qo‘llash amaliyotidagi murakkabliklar, malakali kadrlar yetishmovchiligi va davlat hamda xususiy sektor o‘rtasidagi raqobat sharoitlarini takomillashtirish zarurati shular jumlasidandir.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy xulosalar va takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Investitsiya muhitining huquqiy barqarorligini mustahkamlash. Xorijiy investorlarning mulkiy huquqlarini himoya qilish, shartnomaviy majburiyatlarning bajarilishini kafolatlash va investitsion nizolarni samarali hal etish tizimini rivojlantirish zarur.
2. Investitsiyalarni tarmoqlar bo‘yicha diversifikatsiya qilish. Xorijiy kapitalni qayta ishlash sanoati, qishloq xo‘jaligi, farmatsevtika, axborot texnologiyalari, logistika va qayta tiklanuvchi energetika sohalariga kengroq yo‘naltirish lozim.
3. Hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish. Har bir viloyatning iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, xorijiy investorlar uchun aniq loyihalar portfelini shakllantirish va hududiy infratuzilmani rivojlantirish kerak.
4. Investitsiya jarayonlarini raqamlashtirish. Investorlar uchun ruxsatnomalar, ro‘yxatdan o‘tish, loyiha monitoringi va davlat xizmatlarini yagona elektron platforma orqali amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiq.
5. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish. Xususiy va xorijiy kapitalni yirik infratuzilma, energetika, transport va ijtimoiy loyihalarga jalb qilish uchun shaffof hamda raqobatbardosh shart-sharoitlar yaratish zarur.
6. Mahalliy korxonalar bilan kooperatsiyani kuchaytirish. Xorijiy investorlar va mahalliy ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida texnologik hamkorlik, tajriba almashish va qo‘shma ishlab chiqarish loyihalarini rivojlantirish kerak.

7. Investitsiyalarning sifat ko‘rsatkichlarini baholash tizimini joriy etish. Yangi ish o‘rinlari, eksport hajmi, mahalliylashtirish darajasi, mehnat unumdorligi va innovatsion texnologiyalarni joriy etish investitsion samaradorlikning asosiy mezonlariga aylanishi lozim.

Umuman olganda, iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonida chet el investitsiyalarini jalb qilish mexanizmini takomillashtirish mamlakatning xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi ishtirokini kengaytirish, milliy ishlab chiqarish salohiyatini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bunda asosiy e’tibor investitsiyalarning miqdoriy o‘sishiga emas, balki ularning iqtisodiyotga olib kiradigan texnologik, ishlab chiqarish va ijtimoiy samaradorligiga qaratilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida.
3. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. 2025-yil yakunlari bo‘yicha investitsiyalar hajmi to‘g‘risidagi rasmiy ma’lumot. 2026-yil 7-yanvar. Rasmiy ma’lumot.
4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. 2025-yil yanvar–sentabr oylarida asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar va kreditlar. 2025-yil 21-oktabr. Statistik ma’lumot.
5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekistonda xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, 2026-yil 1-fevral holatiga. Statistik ma’lumot.
6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. — Toshkent, 2023. Lex.uz.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-598-son “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. Lex.uz.
8. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi O‘RQ-537-son “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni.
9. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-fevraldagi O‘RQ-604-son “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonuni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-iyundagi PF-97-son Farmoni. “O‘zbekiston Respublikasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag‘batlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. Lex.uz.
12. OECD. Roadmap for Sustainable Investment Policy Reforms in Uzbekistan. — Paris: OECD Publishing, 2025. Tadqiqot hisoboti.
13. OECD. Strengthening Uzbekistan’s Legal and Policy Framework for Sustainable Investment. — 2025. Tahliliy material.
14. Dunning J. H. Multinational Enterprises and the Global Economy. — Wokingham: Addison-Wesley, 1993.
15. UNCTAD. World Investment Report 2025. — Geneva: United Nations, 2025. World Investment Report.